

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Farrux NURULLAYEV

Buxoro davlat universiteti
musiqa ta'limi kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Nodira NURULLAYEVA

Buxoro davlat universiteti
2-bosqich magistri

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING UZLUKSIZ TA'LIMDAGI TUTGAN O'RNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni haqida bayon etilgan. Xalq qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir.

Kalit so'zlar: *xalq qo'shiqlari, madaniyat, submadaniyat, musiqa, qo'shiq, hissiyot, ma'naviyat, axloqiy madaniyat, san'at, adabiyot, bola, mahorat.*

В статье рассматриваются роль народных песен в воспитании молодежи. Знакомство со своей национальной культурой. Обсуждаются структура личности, место детского фольклора у младших школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграции нравственных качеств.

Ключевые слова: *народные песни, культура, музыка, песня, субкультура, чувство, интеллект, арт, литература, дитя, способность.*

The article discusses the role of folk songs in the education of young people. Getting to know your national culture. The structure of personality, the place of children's folklore among younger schoolchildren, purposeful pedagogical processes of formation and integration of moral qualities are discussed.

Key words: *folk songs, culture, music, song, subculture, feeling, intelligence, art, literature, child, ability.*

Kirish. Yosh avlodning musiqiy iste'dodini, madaniyatini yuksaltirish, xalqning ma'naviy boyligi xalq qo'shiqlari durdonalarini sevib o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy mahorat, nafas va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. San'at va adabiyot esa inson qalbi me'mori ekanligi ko'p bora tasdiqlangan. Azaldan xalq qo'shiqlari tarbiya vositasi sifatida navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Asosiy qism. Xalq qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususi yatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. U uzinig g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalqimizning o'tmishi va bugungi hayotini teran anglash, milliy qadriyatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o'rgatadi. Shuningdek, u kishi ruhini va fikrini yuksaltiradi, shaxsni ruhan poklaydi, boyitadi va komillik sari yetaklaydi. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Platon va Aristotel ham har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashda musiqaning o'rniga alohida ahamiyat berishgan. Shuningdek, Sharq musiqashunoslik ilmining asoschisi, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan serqirra ijodkor, mutafakkir Abu Nasr al-Forobiy shaxsning ma'naviy kamoloti uchun muhim bo'lgan axloq-odob tarbiyasi bilan birga musiqa tarbiyasi bilan ham shug'ullanib, ushbu tarbiyalarning o'zaro chambarchas bog'liq holda olib borish g'oyasini ilgari surgan. Zero, musiqa sehrining ijobiy ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati bolaning yurish-turishida, hatti-harakatida, insonga va tabiatga munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z asarlarida yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish masalalariga salmoqli o'rin ajratgan. Eng avvalo, musiqa shaxsni axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi ijobiy xususiyatlarini alohida ta'kidlab, shunday yozadi: "Musiq shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori, muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi...". Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida musiqaning inson hayoti davomidagi ahamiyatini alohida qayd etib, "u musiqa olami - haliyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi", - deb xitob qiladi.

Sharq musiqa ilmida yangi davr ochgan bu kabi qomusiy olimlarning yana biri Abu Ali ibn Sino ham musiqaning shaxsning ma'naviy tarbiyasiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida munosib baholagan. U "Bolaning yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhim – bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi", degan g'oya bolaning tarbiyasida alohida o'rin tutgan. Xalq qo'shiqlarimiz o'quvchilarni

bepoyon vatanimizga cheksiz muhabbat, xalqimizga hamjihatlik, do'stlik va insonparvarlik tuyg'ularni tarbiyalaydi.

Mehnatni ulug'lovchi qo'shiqlar o'quvchilar qalbida qator ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi, ma'naviy olamini o'stirib borishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali qo'shiqlar mazmunidagi axloq-odob, pand-nasihad, vatanga, xalqqa, madaniyatiga oid insoniylik fazilatlarini singdirib borishni taqozo etadi.


Muhokamalar va natijalar. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning musiqiy-axloqiy tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda ustozlardan yuqori pedagogik faoliyatni talab etadi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik badiiy didini ma'lum bir mezonlarga mos darajada shakllangan deb tasavvur qilish qiyin. Shuni ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar musiqa janrlari va uning xususiyatlari to'g'risida juda oz ma'lumotga egamiz. Shu tufayli hali ularning musiqiy-ma'naviy dunyosini uyg'otish uchun o'qituvchilardan anchagina mehnat va sa'yi-harakatni talab etadi. Bu jarayonda o'quvchilarning musiqiy-estetik didlari hali mavhum darajada bo'ladi. Ularga berilgan birinchi savollardanoq bunga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, o'quvchilarning musiqa san'atiga qiziqishi va munosabatini aniqlash maqsadidagi "Sen qanday (qaysi) qo'shiqni yaxshi ko'rasan?", "Vatan haqidagi qanday qo'shiqlarni bilasan?", "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasini kim yozgan?", "Qaysi o'zbek xalq qo'shiqlarining nomini bilasan?" kabi savollarga tayinli javob olish qiyin bo'ladi. O'quvchi bu savollarga qanday javob berishni ham bilmay dovdirab qoladi yoki javoblari noaniq va pala partish bo'ladi. Beshinchi, yettinchi sinflarda o'quvchilar kuylash va tinglash uchun berilgan asarlarni, bu qo'shiq yoki kuy qaysi janrga mansubligini, u kim tomonidan yaratilganligi, g'oyaviy badiiy mazmuni, xalq musiqasi yoki kompazitor ijod mahsuli ekanligini, bastakor ijodining ayrim jihatlari haqida bemalol ham so'zlab beradilar. Har bir o'quvchi har kuni turfa musiqiy ohanglar ta'sirida bo'ladi. Hayotning har bir lahzasida turli tuman janr va uslublardagi qo'shiqlarga duch keladi. Ammo ularning ma'lum qismigina ko'pchilikning tiliga tushgan yoki aksincha, ayrim katta yoshdagi bolalar, o'spirinlar, talabalar tomonidan telefonga tushirilgan, disklarga yozib olingan bo'ladi.

Chet eldan oqib kelayotgan submadaniyatga, ularning o'zbek mentalitetiga mos kelmaydigan musiqalariga taqlid qilib yaratilgan, saviyasi past qo'shiqlar, kliplar ham yosh bola ongida o'zining izini qoldirishi mumkin. Bu o'rinda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarga birinchi navbatga xalq musiqasi merosimiz, xalq qo'shiqlari namunalarga keng o'rin berish, musiqa o'qituvchilari oldidagi eng dolzarb katta vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqlari yosh avlodni vatanga mehr-muhabbat, sadoqat ruhida, ota-onaga, insonlarga hurmat-izzat ruhida kamol topishlarida, komil inson bo'lib voyaga yetishlarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. –Toshkent: TDPU, 1995-yil.
2. O'quvchilarda musiqiy-nafosat tarbiyasi shakllantirish yo'llari. –Toshkent, 1992-yil.
3. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida Xorazm musiqa folkloridan foydalanish yo'llari. –Toshkent, 2010.
4. Karomatov F. O'zbek xalq musiqasi merosi, 1-2-kitob. -T., 1983.
5. Nurullayev F.G. Buxoro folklor qo'shiqlarining o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 30.06. 2021-yil maxsus son. -Buxoro. B.28-32.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000000100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2022-yil maxsus son</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 08.06.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 13.06.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 314 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	--